Qabul qilindi: 19-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 21-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 23-noyabr 2026-yil

Oila a’zolarini uzoq muddat parvarişlaş sababli mehnat faoliyatidan çetda qolgan şaxslarning pensiya huquqlarini ta’minlaşning huquqiy mexanizmlari

Ğulomjonov Odiljon Raximjon öğli

Andijon davlat universiteti, Huquq va ma’naviyat asoslari kafedrasi, falsafa fanlari böyiça falsafa doktori (PhD), v.b. dotsenti

ORCID: 0000-0002-7212-7540; E-mail: gulomjonovandu@gmail.com

Atajannov Timur

Andijon davlat universiteti, Huquq-iqtisod fakulteti, Inson resurslarini boshqarish yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda oila a’zolarini uzoq muddat davomida bepul parvarişlaş sababli mehnat faoliyatidan çetda qolgan şaxslarning pensiya huquqlarini ta’minlaş masalalari tadqiq etiladi. Xususan, parvariş davrini mehnat stajiga qo‘şişning amaldagi huquqiy asoslari, uşbu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar hamda parvariş qiluvçhi şaxslarni ijtimoiy himoya qilış mexanizmlari tahlil qilinadi. Şuningdek, milliy qonunçilikni takomillaştiriş va parvariş bilan şug‘ullanuvçi şaxslarning kelajakdagi pensiya ta’minotini kafolatlaşga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: pensiya huquqi, ijtimoiy himoya, oilaviy parvariş, bepul parvariş mehnati, mehnat staji, pensiya ta’minoti, ijtimoiy sug‘urta.

Kiriş

Bugungi kunda aholining ijtimoiy himoyasini kuçaytirish, fuqarolarning mehnat qilish va munosib pensiya oliş huquqlarini ta’minlaş davlat ijtimoiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oila a’zolaridan birining nogironligi, og‘ir kasalligi yoki keksaligi sababli uni uzoq muddat parvarişlaşga majbur bo‘lgan şaxslarning huquqiy va ijtimoiy holati alohida e’tiborni talab qiladi.

Amaliyotda bunday şaxslar ko‘pinça o‘z mehnat faoliyatini to‘xtatishga yoki iş vaqtini

çeklaşga majbur bo‘ladilar. Natijada ularning daromadlari kamayadi, pensiya tayinlaş uçun zarur bo‘lgan mehnat stajini şekllantiriş imkoniyatlari çeklanadi. Bu esa kelajakda pensiya oliş huquqining yuzaga kelişiga yoki pensiya miqdoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Şu sababli oila a’zolarini parvarişlaş bilan bog‘liq davrlarni huquqiy jihatdan tan oliş va uşbu davrda parvarişlovçi şaxslarning pensiya huquqlarini kafolatlaş muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Özbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya ta’minoti, avvalo, 1993-yil 3-sentabrdagi 938-XII-sonli «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonun bilan tartibga solinadi. Mazkur qonunçilik fuqarolarning yoşga doir, nogironlik va boquvçisini yo‘qotganlik pensiyalarini oliş huquqini belgilaydi.

Amaldagi qonunçilikda ayrim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan parvarişlaş davrlarini mehnat stajiga qo‘şiş imkoniyati nazarda tutilgan. Xususan, I guruh nogironligi bo‘lgan şaxsni, 18 yoşgaca bo‘lgan nogironligi bo‘lgan bolani hamda 80 yoşga to‘lgan va o‘zgalar parvarişiga muhtoj keksani parvarişlaş davrlari belgilangan şartlar asosida pensiya tayinlaş uçun zarur iş stajiga qo‘şilişi mumkin.

Biroq uşbu huquq barça parvarişlaş holatlariga birdek tatbiq etilmaydi. Parvarişlaş davrini stajga qo‘şişda qonunçilikda belgilangan şartlar, jumladan, parvariş qiluvçi va parvariş qilinayotgan şaxsning birga yaşaşi hamda tegishli toifadagi şaxsni parvarişlaş holati muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan taşqari, parvarişlaş davrining pensiya stajiga qo‘şilişi uçun şaxsning kamida yetti yillik umumiy iş stajiga ega bo‘lişi talabi ham mavjud.

Mazkur mexanizm parvarişlovçi şaxslarning ijtimoiy himoyasini ta’minlaşga xizmat qilsa-da, uning ayrim jihatlari takomillaştirişni talab etadi. Masalan, uzoq muddat davomida og‘ir kasallikka çalingan, biroq qonunçilikda alohida ko‘rsatilgan toifalarga kirmaydigan oila a’zolarini parvarişlayotgan şaxslar uçun pensiya stajiga oid kafolatlar yetarli darajada şekllanmagan. Natijada amalda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan parvariş faoliyati pensiya huquqini şekllantirişda to‘liq e’tirof etilmasligi mumkin.

Şuningdek, parvarişlaş faoliyati ko‘pinça haq to‘lanmaydigan mehnat shakli sifatida

namoyon bo‘ladi. Bunday faoliyat jamiyat va davlat uçun muhim ijtimoiy vazifani bajarsa-da, parvarişlovçi şaxsning iqtisodiy mustaqilligi va kelajakdagi pensiya ta’minotiga yetarlicha ijobiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat pensiyalarini tayinlaş va to‘laş tartibi to‘g‘risidagi nizomda ham mehnat stajini aniql aş, parvarişlaş davrlarini hisobga oliş va tegishli hujjatlar bilan tasdiql aş tartiblari belgilangan. Bu esa pensiya huquqini amalga oşirişda huquqiy va ta şkiliy mexanizmlarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Mazkur masalaning yana bir muhim jihati şundaki, uzoq muddat parvarişlaş bilan şug‘ullanuvçi şaxslarning pensiya huquqlarini ta’minlaş faqat pensiya tayinlaş vaqtida stajni hisobga oliş bilan ç eklanmasligi lozim. Buning uçun parvarişlaş davrida ijtimoiy sug‘urta mexanizmlarini joriy etiş, davlat tomonidan sug‘urta badallarini qoplaş va parvarişlovçi şaxslarning huquqiy maqomini mustahkamlaş zarur

Yuqoridagi tahlillardan kelib çiqib, oila a’zolarini uzoq muddat parvarişlaş sababli mehnat faoliyatidan çetda qolgan şaxslarning pensiya huquqlarini ta’minlaş bo‘yiça quyidagi takliflarni ilgari suriş mumkin:

Qonunçilikda parvarişlaş faoliyati bilan şug‘ullanuvçi şaxslarning huquqiy maqomini alohida belgilaş va parvarişlaş davrlarini pensiya stajiga qo‘şiş asoslarini kengaytirish.

Uzoq muddat parvarişlaş bilan band bo‘lgan, mehnat faoliyatini amalga oşiriş imkoniyati çeklangan şaxslar uçun davlat tomonidan ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘lab beriş mexanizmini joriy etish. Parvarişlaş davrlarini tasdiql aşning soddalaştirilgan elektron tizimini yaratish hamda tibbiy va ijtimoiy ma’lumotlar bazalari o‘rtasida integratsiyani kuçaytirish. Parvarişlaş faoliyati bilan band şaxslarning pensiya stajini şekllantirişda yetti yillik umumiy iş staji talabini qayta ko‘rib çiqiş va uzoq muddat parvarişlaş holatlari uçun alohida imtiyozlar belgilaş. Parvarişlovçi şaxslarning mehnat bozoriga qaytişini rag‘batlantiriş maqsadida kasbiy qayta tayyorlaş, moslaşuvçan iş va masofaviy bandlik imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, oila a’zolarini uzoq muddat parvarişlaş sababli mehnat

faoliyatidan çetda qolgan şaxslarning pensiya huquqlarini ta’minlaş ijtimoiy davlat tamoyilini amalga oşirişning muhim tarkibiy qismidir. Amaldagi qonunçilikda ayrim parvarişlaş davrlarini pensiya stajiga qo‘şiş mexanizmlari mavjud bo‘lsa-da, ular barça parvarişlaş holatlarini qamrab olmaydi.

Şu bois parvarişlaş faoliyatini ijtimoiy jihatdan ahamiyatli mehnat sifatida e’tirof etiş, davlat tomonidan ijtimoiy sug‘urta badallarini to‘laş mexanizmlarini kengaytirish hamda pensiya stajini şekllantirişga oid huquqiy kafolatlarni kuçaytirish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondaşuv parvarişlovçi şaxslarning kelajakdagi moddiy ta’minotini mustahkamlaş bilan birga, oilaviy parvariş mehnatining jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini ham oşiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi 938-XII-sonli «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 13-oktabrdagi 592-sonli «Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. - 2022-yil 28-oktabr, O‘RQ-798-son.

II. Elektron manbalar

5. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi - https://lex.uz

6. O‘zbekiston Respublikasi Pensiya jamg‘armasining rasmiy veb-sayti - https://pensiya.uz

7. O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligining rasmiy veb-sayti - https://ihma.uz

8. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining rasmiy veb-sayti - https://adliya.uz